

OLIIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING TA'LIM AMALIYOTIDAGI MAVJUD HOLATI

Yuldoshev Shaxboz Xoshimjon o'g'li

NamDTU mustaqil izlanuvchisi

Shaxbozyuldoshev4383@gmail.com

Annatsiya. XXI asr — global ekologik muammolar asri bo'lib, inson faoliyati natijasida tabiatga bo'lgan salbiy ta'sirlar keng ko'lamda namoyon bo'lmoqda. Atmosfera ifloslanishi, suv resurslarining kamayishi, tabiiy hududlarning degradatsiyasi hamda biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabi jarayonlar butun dunyo hamjamiyatini ekologik xavfsizlik masalalarini qayta ko'rib chiqishga undamoqda. Ayniqsa, yosh avlod — kelajakning yetakchilari sifatida atrof-muhitni asrash va barqaror rivojlanish tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha yetarli bilim va madaniyatga ega bo'lishi lozim.

Kalit so'zlar: global ekologik, ekologik ong, ekologik madaniyat

ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРАКТИКЕ

Аннотация. XXI век — это век глобальных экологических проблем, и негативное воздействие человеческой деятельности на природу становится все более очевидным. Такие процессы, как загрязнение атмосферы, истощение водных ресурсов, деградация природных территорий и потеря биоразнообразия, заставляют мировое сообщество переосмыслить вопросы экологической безопасности. Особенно молодое поколение, как будущие лидеры, должно обладать достаточными знаниями и культурой для практического применения принципов охраны окружающей среды и устойчивого развития.

Ключевые слова: глобальная экология, экологическая осведомленность, экологическая культура

THE CURRENT STATUS OF FORMING THE ECOLOGICAL CULTURE OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN EDUCATIONAL PRACTICE

Abstract. The 21st century is a century of global environmental problems, and the negative impact on nature as a result of human activity is becoming increasingly evident. Processes such as atmospheric pollution, depletion of water resources, degradation of natural areas, and loss of biodiversity are forcing the global community to reconsider issues of environmental safety. Especially the younger generation, as the leaders of the future, should have sufficient knowledge and culture to apply the principles of environmental protection and sustainable development in practice.

Keywords: *global ecological, ecological awareness, ecological culture*

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari ekologik ta'lim va tarbiya jarayonida talabalarni atrof-muhitga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish, ularning ekologik madaniyatini shakllantirish bo'yicha qat'iy chora-tadbirlar amalga oshirmoqda. O'quv rejalari va dasturlariga ekologiya bilan bog'liq fanlar kiritilishi, ilmiy-amaliy seminarlar, ekologik klublar faoliyati va ijtimoiy aksiyalar talabalarda ekologik ongni oshirishga xizmat qilmoqda.

Shunga qaramay, amaliyotda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni hali ham bir qator muammolarga duch kelmoqda.

Ta'lim kontenti ko'pincha nazariy yondashuvga asoslangan bo'lib, talabalarni real ekologik muammolarni hal etishga yetarlicha tayyorlamaydi; amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari va real atrof-muhit loyihalari yetarlicha joriy etilmagan. Bundan tashqari, fakultetlararo integratsiya va ko'p fanli yondashuvlar yetishmagani sababli talabalar ekologik bilimlarni keng kontekstda tizimli ravishda egallay olmayapti. O'quv jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirish samaradorligini oshirish uchun pedagogik innovatsiyalar, interaktiv metodlar va amaliy tajriba asoslaridan kengroq foydalanish zarur.

Shuningdek, jamiyatning ekologik salohiyatini oshirishda talabalar faolligi, ularning ekologik loyihalar va jamoat harakatlarida ishtirok etishi muhim omil sanaladi.

Talabalar o'rtasida ekologik klublar va ijtimoiy tashabbuslar orqali atrof-muhitni asrash bo'yicha real loyihalarni amalga oshirish — bu nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki ekologik madaniyatni kundalik hayotga tatbiq etish imkoniyatidir.

Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalari ekologik ta'limni tashkil etishda zamonaviy talablarga javob beradigan o'quv-uslubiy materiallar, raqamli platformalar va xalqaro tajribalarni joriy etish orqali talabalar ekologik kompetensiyalarini yanada chuqurroq rivojlantirishi mumkin. Bu esa o'z navbatida talabalarni kompleks ekologik fikrlashga, atrof-muhit muhofazasi bo'yicha samarali qarorlar qabul qilishga va barqaror jamiyat qurilishiga tayyorlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur ishda oliy ta'lim muassasalari talabalarining ekologik madaniyatini shakllantirishning ta'lim amaliyotidagi mavjud holati, uning ijobiy tomonlari, mavjud muammolar hamda samarali yechimlar tahlil qilinadi. Bu tadqiqot ekologik ta'limni takomillashtirish bo'yicha aniq amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi hamda ta'lim sohasida ekologik yondashuvlarni kuchaytirishga hissa qo'shadi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ekologik madaniyatini shakllantirish bo'yicha ta'lim amaliyoti, asosan, ekologik ta'lim va tarbiyani mustahkamlash, uni o'quv jarayonlariga kengroq integratsiya qilish hamda ekologik muammolarga yechim topishga qaratilgan. Ta'lim amaliyotida ekologik ta'limni rivojlantirish uchun davlat tomonidan olib borilayotgan ishlar, ekologik ta'lim va tarbiyaning umumiy ta'lim muassasalaridagi muhimligini ko'rsatib beradi.

Mavjud holatni baholashda quyidagilar muhim:

- Qonuniy asoslar:

Oliy ta'lim muassasalarida ekologik madaniyatni shakllantirishga ko'maklashuvchi qonuniy-huquqiy hujjatlar mavjud.

- O'quv rejalariga integratsiya:

Ekologik ta'limning o'quv jarayonlariga kengroq kiritilishi talabalarning ekologik bilim va ko'nikmalarini oshiradi. Bu, albatta, o'quv rejalarida ekologik fanlarning qo'shilishi, qo'shimcha o'quv materiallarining tayyorlanishi kabi ishlarni o'z ichiga oladi.

- Amaliy mashg'ulotlar:

Talabalarning ekologik muammolar yuzasidan amaliy ish olib borishlari, ya'ni ekologik loyihalar, amaliy mashg'ulotlar va tadbirlarda ishtirok etishlari ekologik madaniyatni shakllantirishga yordam beradi.

- Davlat siyosati:

O'zbekistonda ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosati oliy ta'lim muassasalaridagi ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, O'zbekistonda ekologik madaniyatni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan amaliy ishlar ko'lami tobora kengayib bormoqda.

ekologik ta'lim va tarbiyani amalga oshirishda oila va ta'lim muassasaning o'рни tahlil qilindi. Tabiatni sevish, undan to'g'ri va ongli ravishda foydalana biluvchini tarbiyalash ekologik tarbiya va madaniyatning asosi bo'lib, kishilarda tabiat oldida ma'suliyatni anglash malakasini hosil qiladi. Vatanni sevish, vatanparvarlik tabiatni sevishdan boshlanadi. Binobarin, o'quvchilarda tabiatga nisbatan haqiqiy muhabbat tuyg'usini hosil qilmay turib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin emas. Insonni tabiat quchog'ida bo'lishi uni ruhan tetiklashtirib, mehnat qobiliyatini va individual faoliyatini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasini hayotga tadbiq etish orqali iqtisodiyotning energiya va resurslar sarflanishini hajmini qisqartirish, ishlab chiqarishga tejamkor texnologiyalarni keng joriy qilish, qayta tiklanuvchi texnologiyalardan, texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish maqsadga muvofiqdir". 2019 yil 4 oktabrdagi PQ-4477-son «2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «Yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilingan [1]. 2025-yil O'zbekistonda "Yashil iqtisodiyot va atrof-muhitni muhofaza qilish" yili deb ataldi. Albatta, bu bejiz emas.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tabiatning ekologik holatining buzilishi – tuproq, havo va suvning tiriklik uchun zararli moddalar bilan ifloslanishi, zaharlanishi, o'simlik va hayvonlarning foydali turlarining kamayib ketishi, yangi shaharlarning paydo bo'lishi, aholi sonining ko'payishi, energiya, suv va oziq-ovqatga bo'lgan talabning o'sishi natijasida rivojlanish markazlarining tabiat ichkarisiga – o'zlashtirilmagan joylariga kirib borishi insonning yashash muhitining tubdan o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli atrof-muhitni muhofaza qilish bu bir kichik mintaqaning emas, balki bir kata qit'aning, undagi xalqlarning, davlatlarning xalqaro muammosiga aylanib qolmoqda. Masalan, Orol atrofidagi ekologik fojia butun Turkistonning emas, balki Eron-Turon tuprog'ida joylashgan davlatlarning hamjihatligida hal bo'ladigan muhim muammo bo'lib qoldi [2, 66-b.]. Ekologik ta'lim va tarbiya bolani yoshligidan ongiga singdirilmas ekan, biz haqiqiy komil insonni shakllantira olmaymiz. Maktabgacha ekologik ta'lim bolani 6-7 yoshgacha bo'lgan davrini o'z ichiga olib uni sog'lom

tug'ilishi, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydigan, unda o'qishga intilish hissini shakllanishiga qaratilishi kerak. Sog'lom avlod uchun birinchi navbatda oila juftligini to'g'ri shakllantirish kerak bu borada har ikkala tomonning rezus faktorlarining mos kelishi yoki kelmasligi sog'lom avlod olishda muhim rol o'ynashi alohida o'rin tutadi.

Insonning rivojlanishi muhit ekologiyasiga, sifatli, yuqori, koloriyali, vitaminlarga boy oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda yangi avlod dunyoga kelishda ekologik me'yorlarga rioya qilish muhimdir. Maktabgacha va maktab hamda Oliy ta'lim talabalarida ham ekologik ta'lim tarbiya asosan oilada amalga oshadi, bu borada xalqimizning "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan maqol asosida ish ko'rish maqsadga muvofiqdir. Yosh bolani jismonan va aqliy shakllanishida nafaqat og'zaki, balki ota-ona, aka-uka, qarindoshlarning shaxsiy faoliyati ham andoza bo'ladi. Chunki yaqinda dunyoga kelgan go'dak jismonan va aqliy jixatdan shakllanishi tez suratlar bilan har tomonlama amalga oshadi, ko'rgan, sezgan, eshitgan hodisalardan nusxa oladi. Bu narsalarni u dastlab ona va otadan oladi, chunki asosan ular bola atrofida ko'proq u bilan shug'ullanishadi. Shu bois maktabgacha ekologik ta'lim tarbiya dastlab ota-onadan, aka-ukadan, bog'cha tarbiyasidan boshlanadi. Bu davrda bolaga "Yuz marta aytgandan bir marta ko'rsatmoq afzal" degan shiorga rioya qilib, foydali o'simlik, hayvon, xarom, halol, yaxshi va yomon narsa va hodisalarni bolaga erinmasdan tushuntirib borish kerak. Ta'lim tizimidagi navbatdagi ekologik ta'lim maktab davrida amalga oshadi.

Ekologik ta'lim tarbiya to'g'risida dastlabki tushunchalar boshlang'ich va o'rta maktabdan boshlanadi. Maktabda o'tiladigan nazariy ekologiya, biologiya, fanlari asosida o'qitilib, o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash, tashqi muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lib uni muhofaza qiluvchilar etib tarbiyalash ishiga yordam berishi kerak. Ekologik ta'lim tarbiya quyidagi asosiy bo'limlarni o'z ichiga oladi.

a) O'quvchilarni tabiat go'zalliklarini sevish, ulardan estetik zavq olish ruhida tarbiyalash.

b) O'quvchilarga maxsus ekologik bilim va tarbiya berib ularda bu soxada muayyan malaka hosil qilish.

v) O'quvchilarni tabiat in'omlaridan to'g'ri foydalanish ruhida tarbiyalash. g) Ekologik o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish ruhida tarbiyalash.

d) O'quvchilarga ekologik madaniyatni, ma'naviyatimiz va tariximizdan kelib chiqqan holda bilim va tarbiya berish orqali singdirish. Ma'naviy barkamol insonning shakllanishida bu jarayon asosan maktabgacha va maktab davrida shakllanadi. Buning uchun o'quvchi barcha fanlarni xususan, tabiiy fanlarni, tabiat qonunlarini chuqur o'zlashtirib olishi kerak Maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga borganda esa olingan bilimlarini to'ldirib, tabiatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar mexanizmlarini o'zi mutaxassis bo'layotgan soha bo'yicha yuz berayotgan ekologik holatlarini analiz qilib, tegishli xulosa chiqara bilishi kerak. Tabiatning normal hayoti uchun fuqarolik mas'uliyatini to'la anglashi ekologik ta'lim va tarbiyaning ifodasidir. Tabiatni muhofaza qilish va ekologik ta'lim tarbiya masalasi pedagogika va psixologiya masalalarining eng muhim tarkibiy qismidir.

Kishilarda tabiat qonunlariga to'la rioya qilish to'g'risida va bu sohada Vatan, xalq, davlat va kelajak avlod oldidagi burch tuyg'usi va mas'uliyat hissi hosil etilmasa, ularda to'la ekologik ong va tafakkur hosil bo'lmaydi. Ekologik ong va tafakkurga ega bo'lgan har bir kishi o'z mehnat faoliyatida tabiatga me'yorida ziyod ta'sir etish qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko'rib, ongli ravishda ish tutadi. Tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini bilmaslik ekologiya bilimlaridan bexabar, go'yo tabiatda "O'z o'zidan beriladigan" ekologik muvozanatning mavjudligi, qandaydir "Yopiq ekologik tizim"ning borligi, tabiatni qaytadan tiklanishiga aralashmaslik to'g'risidagi tamoman zararli fikrlarning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Ekologik tarbiya-ahlokiy tarbiyaning ajralmas qismidir. Kishilarda ekologik ong va tafakkurni, ekologik dunyoqarashni hosil qilish tabiatni dialektik tushunishga yordam beradi.

Hamma bosqichlarda ekologik ta'lim va tarbiyani talab etilgan darajada amalga oshirish uchun bu vazifani muhimligini va ma'suliyatini yaxshi bilgan yoshlarni tayyorlash zarur. Ekologik jihatdan bilimli va madaniyatli yoshlarni tarbiyalashda uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'lim tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yib

sifatli olib borish asosiy mezon bo'lishi kerak. To'g'ri rivojlanishga milliy qadriyatlarga tayanmasdan ham erishish mumkin. Yoki biz qadriyatlarga ko'proq bog'lanib qolmoqdamiz, qadriyatlarimiz esa bizni taraqqiyotimizga ayrim hollarda turtki berish o'rnida, halaqit ham qilmoqda deydiganlar topiladi. Bunday qarashlar qaysi jihati bilan to'g'ri kelmaydi, yoki uni qabul qilish qiyin degan savollar doimiy ravishda mavjud bo'ladi. Milliy rivojlanishida har bir xalq tili, madaniy xususiyatlarini hisobga olib, qadriyatlariga befarq, loqayd qarasa va istagan «turmush tarzi», urf-odat, qadriyatlarini o'zi uchun qabul qilaversa, o'z taraqqiyot yo'lini yo'qotib qo'yadi. Bunga mustabid sovet davri tipik misoldir. SHuning uchun ham har qanday rivojlanish andozasini emas, o'ziga xos va mos rivojlanish yo'lini e'tirof etish milliy istiqlool g'oyasiga to'g'ri keladi. SHu ma'noda, milliy istiqlool g'oyasini xalqimizning yangi jamiyat qurish borasidagi harakat dasturi deyish mumkin.

Bolalarni maktab ta'limiga hamda Oliy ta'limga tayyorlashda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur: o'qish, o'rganishga havas uyg'otish; tabiatni asrab-avaylashga o'rgatish; kitobxonlikka qiziqtirish; ozodalik va salomatlik odobi; odob ko'nikmalarini paydo qilish; o'z hatti-harakati uchun mas'uliyatni tarbiyalash. Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbek oilalaridagi kitobga muhabbat, kitobni asrab-avaylab saqlash va kitobxonlik xalqimiz ma'naviy kamolotida muhim ahamiyat kasb etgan fazilatga aylangan. Chunki kishining o'zini-o'zi tarbiyalashida kitob ham bilim manbai, ham o'zingizni ko'rish, taqqoslash, taqlid qilish, munozara yuritish, bahslashishda ma'lum darajada ko'zgu vazifasini o'taydi. Kitobxonlik mushohada va mulohaza yuritish iqtidorini shakllantiradi, fikrni charxlaydi, teranlashtiradi. Ta'limdan tashqari ishlarda yoshlarni kitob mutola qilishga da'vat etish, ularning kitoblardan foydalanib o'z ustida ishlash imkoniyatlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Insonlarning er va uning boyliklari bilan aloqasi ming-ming yillar oldin boshlangan. Bu munosabatning ilk qadamlarida insonning katta landshaftlar – ekosistemalarga ta'siri chegaradan chiqmagan, sezilarli bo'lmagan. Texnikaning o'sishi bilan er osti

qazilmalaridan foydaanishni boshlab yubordi. Bu jarayonlar talabini qondirish uchun juda kata maydonlardagi jo'ka, grab, zarang, qarag'ay o'rmonlari yo'qolib ketdi. Qalin o'rmonlar dashtga aylandi, u erlarni begona o'tlar bosdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim talabalarining ekologik bilimlari va ekologik madaniyatini oshirish kunning dolzarb vazifasiga aylandi. Biz tadqiqotimizning beshinchi bosqichini qisqa izohlash orqali asosiy erishilagan va erishilayotgan yutuqlarni keyingi paragraflarda yoritishni rejalashtirdik.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak:

birinchidan, ekologik bilimlar va ekologik madaniyatni shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tahlil etish tizimini asosan to'rt guruhga ajratish maqsadga muvofiq;

ikkinchidan, O'zbekiston hududida ekologik bilimlar va ekologik madaniyatni shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tabiatning inson ustidan hukmronligi va insonning tabiat ustidan ekstensiv asosda hukmronligiga bog'lab talqin qilish nisbiy xulosalarni keltiradi;

uchinchidan, O'zbekiston ta'lim muassasalarida ekologik bilimlar va ekologik madaniyatning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini ma'naviyatni rivojlanishi bosqichlariga yaqinroq bog'lab talqin qilish nisbatan aniqlikni tashkil etadi;

to'rtinchidan, O'zbekiston hududida ekologik bilimlar va ekologik madaniyatning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini shartli ravishda beshta:

- 1) ilk qadimgi (arxaik) va zardushtiylikkacha;
- 2) Zardushtiylikdan islomgacha;
- 3) Islom mafkurasi va chor Rossiyasi bosqinigacha bo'lgan;
- 4) chor Rossiyasi va sovet ittifoqi mustamlakchilik davri;
- 5) Mustaqillik davri bosqichlariga ajratib o'rganish samarali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдрахманов Т., Жаббаров З.А. Тупроқларнинг нефть ва нефть маҳсулотлари билан ифлосланиши ва уларнинг рукультивацияси. – Т.: Университет, 2012.
2. Абдуллаев З. Экологическое отношение и экологическое сознание. – Т.: Ўзбекистон, 1990.

3. Абдурахмонов И. Мамлакатимиз селекционерларининг улкан ютуқлари/ // old.xs.uz, 2015, 6 август.
4. Абдурахмонова И. Экология: муаммо ва ечим. // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги, 2015, №9
5. Abdullaev Z. Ekologicheskie otnosheniya i ekologicheskoe soznanie. T.: Fan, 1990.
6. Dedyu I.I. Ekologicheskiy ensiklopedicheskiy slovar. Kishinyov.: Gl.red. Moldavskoy sov. ensiklopedii, 1989, 406 s.
7. Milanova E.V., Ryabchikov A.I. Ispolzovanie prirodnix resursov i ohrana prirodi. M.: Visshaya shkola, 1986.
8. Pirogov N.L., Sushon S.P., Zavalko A.G. Vtorichnie resursi: Effektivnost, opit, perspektivi. M.: Ekonomika, 1987..